

AXBOROTNI TANQIDIY BAHOLASH PLATFORMASI ASOSIDA
TALABALARNING MEDIASAVODXONLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH
(CRITILEARN PLATFORMASI MISOLIDA)

Abdullajonova Nurzoda Nurmaxamadovna

Namangan davlat texnika universiteti doktoranti

e-mail:nurzoda.nur27@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0009-4138-0146>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18944620>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim tizimida ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etishning dolzarb muammolari, ularning sabablari hamda zamonaviy pedagogik innovatsiyalar asosidagi yechimlari tahlil qilinadi. Xususan, talabalarining mediasavodxonlik kompetentligini rivojlantirish masalasi ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan asoslab beriladi. Muallif tomonidan taklif etilgan “CritiLearn” (Critical Learning) raqamli platformasi modeli ilmiy ishlanmalarni real o‘quv jarayoniga integratsiya qilishning amaliy mexanizmi sifatida tavsiflanadi. Platformaning mazmuni, metodik tuzilishi, modullari, interfeysi va dars ishlanmalari keng yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy tadqiqot, amaliyotga joriy etish, pedagogik innovatsiya, raqamli ta’lim, mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash, texnologik ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv.

Аннотация: В данной статье анализируются актуальные проблемы внедрения результатов научных исследований в практику системы образования, их причины, а также пути решения на основе современных педагогических инноваций. В частности, с научно-педагогической точки зрения обосновывается вопрос формирования медиаграмотности у студентов. Предложенная автором цифровая платформа «CritiLearn» (Critical Learning) рассматривается как практический механизм интеграции научных разработок в реальный образовательный процесс. Подробно освещаются содержание платформы, её методическая структура, модули, интерфейс и примеры учебных занятий.

Ключевые слова: научное исследование, внедрение в практику, педагогическая инновация, цифровое образование, медиаграмотность, критическое мышление, технологическое образование, компетентностный подход.

Abstract: This article analyzes the actual problems of implementing research results into educational practice, their underlying causes, and possible solutions based on modern pedagogical innovations. In particular, the issue of developing students’ media literacy competence is substantiated from a scientific and pedagogical perspective. The digital platform “CritiLearn” (Critical Learning), proposed by the author, is presented as a practical mechanism for integrating scientific developments into the real educational process. The content of the platform, its methodological structure, modules, interface, and sample lesson designs are comprehensively described.

Keywords: scientific research, implementation into practice, pedagogical innovation, digital education, media literacy, critical thinking, technological education, competency-based approach.

Kirish. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimi jamiyat rivojlanishining asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Iqtisodiyot, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohaslarida 3D texnologiyalar, robototexnika, sun’iy intellekt, sanoat interneti va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining jadal rivojlanishi kadrlar tayyorlash tizimiga yangi talablar qo‘ymoqda. Bu jarayonda pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy mehnat o‘qituvchisi nafaqat an’anaviy ishlab chiqarish jarayonlarini, balki raqamli trenajyorlar, virtual laboratoriyalar, onlayn simulyatorlar va dasturiy muhitlarni ham puxta egallagan bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, u axborotni tanqidiy tahlil qilish, media kontentning ishonchligini baholash, o‘quvchilarga xavfsiz va samarali raqamli faoliyat ko‘nikmalarini o‘rgatish kompetensiyasiga ega bo‘lishi zarur. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ta’lim sohasida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar natijalari to‘liq darajada o‘quv jarayoniga integratsiya qilinmayapti. Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzilish pedagogik innovatsiyalarning samaradorligini pasaytirmoqda[1].

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy etish jarayoni innovatsion faoliyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Pedagogik innovatsiya — bu ta’lim jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadigan, ilmiy asoslangan, tizimli o‘zgarishdir.

Ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq etish Muammoni aniqlash va ilmiy asoslash, Nazariy model ishlab chiqish, Metodik mexanizm yaratish, Amaliy sinovdan o‘tkazish, Monitoring va baholash, Keng joriy etish kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Ta’lim tizimida ushbu bosqichlarning to‘liq amalga oshirilmasligi ko‘plab ilmiy ishlanmalar samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Mavjud muammolar tahlili

1. Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovut - ko‘plab ilmiy ishlarda konseptual g‘oyalar ishlab chiqiladi, biroq ularni real dars jarayonida qo‘llash mexanizmi yetarlicha aniqlashtirilmaydi.

2. Raqamli kompetensiyaning yetarli darajada shakllanmaganligi, ya’ni, bo‘ljak pedagoglarda mediasavodxonlik, axborotni tanqidiy baholash, feyk kontentni aniqlash, raqamli vositalarni didaktik tahlil qilish ko‘nikmalari sust rivojlangan.

3. Metodik vositalarning yetishmasligi - ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish uchun mos platformalar, interaktiv resurslar va modulli tizimlarning yetarli emasligi kuzatiladi.

4. Axborot xavfsizligi muammolari sifatida esa raqamli muhitda pedagogning axborot tarqatishdagi mas’uliyati, mualliflik huquqi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotda tahlil va sintez, pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma, tajriba-sinov ishlari, komparativ tahlil kabi metodlardan foydalanildi. Tadqiqot obyekti — oliy ta’limda tahsil olayotgan talabalar, tadqiqot predmeti sifatida talabalarda mediasavodxonlik kompetentligini shakllantirish jarayoni belgilandi[2].

CritiLearn — tanqidiy fikrlash asosida mediasavodxonlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan interaktiv raqamli platforma bo‘lib, platformaning maqsadi talabalarda axborotni izlash, tahlil qilish, baholash va pedagogik faoliyatda ongli qo‘llash kompetensiyasini shakllantirish hisoblanadi. Platformaning asosiy tamoyillari sifatida kompetensiyaviy yondashuv, interaktivlik, refleksivlik, gamifikatsiya, muammoli ta’lim, Case-study metodologiyasidan foydalanilgan. Platforma mediasavodxonlik asoslari, axborotni tahlil qilish, digital vositalarni baholash, axborot xavfsizligi va etika, baholash va mustahkamlash modullaridan iborat[3].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ilmiy ishlanmalarni ta’lim amaliyotiga joriy etish jarayoni tizimli yondashuvni talab etadi. Agar ilmiy g‘oya metodik mexanizm, raqamli vosita yoki aniq pedagogik model bilan mustahkamlanmasa, u nazariy konsepsiya darajasida qolib ketadi. Shu nuqtai nazardan, CritiLearn platformasi ilmiy-pedagogik g‘oyani amaliy mexanizmga aylantirishning innovatsion modeli sifatida namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, platforma kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, unda bilim berish bilan birga ko‘nikma va malakani shakllantirish ustuvor hisoblanadi. Talabalar media matni o‘qish yoki ko‘rish bilangina cheklanmaydi, balki uni tahlil qiladi, dalillarni tekshiradi, muqobil manbalarni qidiradi va xulosa chiqaradi. Bu esa konstruktivistik ta’lim nazariyasiga mos ravishda faol o‘rganish muhitini yaratadi.

Ikkinchidan, platformada qo‘llanilgan case-study, problem-based learning va CRAAP testi kabi metodlar talabalarda analitik fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, fakt va fikrni ajratish, manipulyativ axborotni aniqlash, rasm va videolarning asl manbasini tekshirish kabi mashqlar zamonaviy axborot muhitida pedagog uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni shakllantiradi.

Uchinchidan, gamifikatsiya elementlari (ball, badge, reyting, sertifikat) ichki motivatsiyani oshirishga yordam beradi. Tajriba-sinov jarayonida talabalar platformadagi interaktiv topshiriqlarga an’anaviy ma’ruza shakliga nisbatan yuqori qiziqish bildirganliklari kuzatildi. Bu esa raqamli muhitda tashkil etilgan refleksiv va interaktiv ta’lim samaraliroq ekanligini tasdiqlaydi.

To‘rtinchidan, platforma pedagogik monitoring imkoniyatini beradi. O‘qituvchi talabalar faoliyatini kuzatishi, qaysi mavzularda qiyinchilik yuzaga kelayotganini aniqlashi va individual yondashuvni amalga oshirishi mumkin. Bu esa ilmiy tadqiqot natijalarini amaliy jarayonda doimiy takomillashtirish imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, muhokama jarayonida ayrim cheklovlar ham aniqlandi. Jumladan, barcha ta’lim muassasalarida raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi, pedagoglarning AKT kompetensiyasidagi tafovutlar, internet tezligi va texnik ta’minot muammolari platformani keng joriy etishda ma’lum qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin[4]. Demak, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish jarayoni metodik bo‘libgina qolmay, tashkiliy va texnologik shart-sharoitlar bilan ham uzviy bog‘liqdir.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Umuman olganda, CritiLearn modeli ilmiy tadqiqot natijalarini real ta’lim muhitiga integratsiya qilishning kompleks yondashuvini taklif etadi. U pedagogni axborot iste’molchisi bo‘lish bilan birha axborotni tanqidiy tahlil qiluvchi va mas’uliyatli tarqatuvchi subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Ta’lim tizimida ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy etish bugungi kunda strategik ahamiyatga ega vazifalardan biridir. Raqamli transformatsiya sharoitida pedagogdan nafaqat o‘z fanini mukammal bilish, balki axborotni tanqidiy baholash, raqamli vositalarni ongli tanlash va ularni didaktik maqsadga muvofiq qo‘llash talab etilmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- Ilmiy tadqiqotlarning samaradorligi ularning amaliy mexanizm bilan ta’minlanganlik darajasiga bog‘liq.
- Mediasavodxonlik kompetentligini shakllantirish bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismi hisoblanadi.
- Raqamli pedagogik platformalar ilmiy g‘oyalarni tizimli va monitoring qilinadigan ta’lim jarayoniga aylantirish imkonini beradi.
- Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish axborot xavfsizligini ta’minlash va pedagogning kasbiy mas’uliyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

CritiLearn platformasi ilmiy-pedagogik tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etishning innovatsion modeli sifatida mediasavodxonlikni rivojlantirish, tanqidiy fikrlashni shakllantirish va raqamli kompetensiyani mustahkamlashga xizmat qiladi. Kelgusida mazkur modelni boshqa pedagogik yo‘nalishlarga moslashtirish, sun’iy intellekt asosidagi adaptiv o‘quv mexanizmlarini integratsiya qilish hamda platformaning samaradorligini keng ko‘lamli empirik tadqiqotlar orqali baholash maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy etish jarayoni uzluksiz, tizimli va innovatsion yondashuvni talab qiladi. Raqamli pedagogik platformalar esa ushbu jarayonning eng istiqbolli va samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi[5].

Ta’lim tizimida ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy etishning asosiy sharti — nazariy g‘oyalarni aniq metodik vosita va raqamli platforma shakliga keltirishdir. CritiLearn platformasi ilmiy-pedagogik innovatsiyaning amaliy modelini taklif etadi. Ushbu yondashuv zamonaviy, mediasavodxon, tanqidiy fikrlovchi va raqamli kompetensiyaga ega o‘qituvchini tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullajonova nurzoda nurmaxamadovna, development of critical thinking in media education, excellencia: international multi-disciplinary journal of education (2994-9521) 2024, 561-563
2. N abdullajonova. Mediasavodxonlik kompetentligini rivojlantirishda axborotni tanqidiy baholashning o‘rni. Engineering problems and innovations 3 (3), 29-33
3. A.o.safibullaevna, a.n.nurmakhamadovna. Application of machine learning to form a knowledge base of intelligent information systems. Research focus 4 (1), 52-59
4. A.n.nurmaxamadovna. Ta’lim jarayonini rivojlantirishda qo‘llaniluvchi media ta’limining asosiy modellari. Ustozlar uchun 57 (4), 151-153
5. Абдуллажонова, н. (2025). Факторы развития критического мышления и медиаграмотности у студентов. Research and implementation, 3(5), 193–198. Извлечено от <https://rai-journal.uz/index.php/rai/article/view/1398>